

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
OLIV VA O'RTA TIBBIY TALIM BO'YICHA O'QUV USLUBIY IDORASI  
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

## BIRINChI TIBBIY YORDAM FANIDAN

Farmatsiya yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun  
o'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent-2005 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
OLIV VA O'RTA TIBBIY TA'LIM BOYICHA O'QUV USLUBIY IDORASI  
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni  
saqlash vazirligining  
kadrlar, fan va o'quv yurtlari  
Bosh boshqarmasining boshlig'i,  
professor F. A. Oqilov

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**BIRINCHI TIBBIY YORDAM FANI BO'YICHA**

Farmatsiya yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun  
o'quv-uslubiy test qo'llanma

Toshkent-2005 yil

Tuzuvchilar:

1. Biologiya fanlari nomzodi Allayeva Munira Jo'raqulovna
2. Tibbiyot fanlari nomzodi Fayziyeva Ziyoda To'rayevna

Tibbiyot fanlari doktori, professor Habibullo Ubaydullayevich Aliyev tahriri ostida

Taqrizchilar:

1. O'zR tibbiyot akademiyasi farmakologiya kafedrasini professori, t.f.d. Azimov M. M.
2. Toshpharmi organik va biologik kimyo kafedrasini dotsenti, b.f.n. Malikova G. Yo.

Kafedra yig'ilishida tasdiqlandi:

Bayonnoma № 13. 30.05. 2005 y.

## DARS MAVZUSI: BEMORLARNI PARVARISH QILISH

### Darsning maqsadi:

bemorlarni parvarish usullarini va uni amalda qo'llashga doir ko'nikmalarni o'zlashtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

bemorlarni parvarish qilish usullarini bilish birinchi tibbiy tizimida juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu ko'malarni o'zlashtirmasdan turib, bemorlarning ahvolini baholashning, shuningdek, shifokor yetib kelgunicha bo'lgan tibbiy yordamni to'g'ri tashkil qilishning iloji yo'q. Shu sababli talabalarga tana harorati, puls, arterial bosimni o'lchash, bemorlarning umumiy ahvoli va a'zo hamda sistemalarning holatiga baho berish to'g'risida tushuncha beriladi.

### O'quv maqsadlari:

1. Etika va deontologiya tushunchalarini bilish (1-daraja)
2. Bemorlarning yurak-qon tomir, nafas, hazm tizimi faoliyatini, shundan kelib chiqqan holda umumiy ahvolini baholay bilish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Jarroxlik bo'limiga keltirilgan bemorni zudlik bilan operatsiyaga tayyorlash kerak. Buning uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi?
2. Terapiya bo'limining intensiv palatasida yotgan og'ir bemorni parvarishlash qanday amalga oshiriladi? O'sha bemorda yotoq yaralarini oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?
3. Yoshi o'tgan kishida insult tufayli ancha kun yotgach dumbada teri bichilgani kuzatildi. Quymich sohasida 4x6 sm li yotoq yarasi paydo bo'lgan. Bemorning bir hafta mobaynida ichi kelmagan. Uni parvarishlashda qanday xatolarga yo'l qo'yilgan? Og'ir kasallarning terisini parvarishlash qanday amalga oshiriladi?

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Etika va deontologiya nima?
2. Nafas a'zolarining xolatlari qanday aniqlanadi?
3. Teri va og'iz bo'shlig'ini parvarishlash usullarini sanang.
4. Puls va qon bosimini o'lchash qanday amalga oshiriladi?
5. Hazm a'zolarining xolatini qanday aniqlash mumkin?
6. Bemorlarni jarroxlik amaliyotigacha va undan so'ng parvarishlash usullarini tushuntiring?

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Terapiya bo'limida yotgan bemorni himoyalash-osoyishtalash tartibini tuzing.
2. Quyida berilgan jadvalni to'ldiring

Ko'rsatkichlar	Puls soni	Qon bosimi	Tana harorati
meyorda			
kasalliklarda o'zgarishi			

## 3. Quyidagilar asosida bemorlarning holatiga baho bering

Bemor, o'zi yuradi, ovqat qabul qiladi, muolajalarga qatnay oladi, umumiy holati o'rtacha.	
Bemor, yura olmaydi, o'z holatini o'zgartira olmaydi, ovqatlantirish va parvarishga muhtoj.	
Bemor o'z ahvolini yengillashtirish va og'riqni kamaytirish uchun yotgan joyida o'ziga hos holatni olgan.	

Aktiv, majburiy, passiv

Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. Malakali birinchi tibbiy yordamni kimlar ko'rsatishi mumkin?

- A. Maxsus bilimga ega bo'lgan hamshiralalar va provizorlar
- B. Uy bekalari va oila hamshiralari.
- V. Voqea ro'y bergan joydagi har qanday shaxs
- G. Jamoat transporti haydovchilari
- D. To'g'ri javob yo'q

2. Asfiksiya nima?

- A. Nafas qisilishining tez avj olishi
- B. Kislorod yetishmaslik holati
- V. Is gazidan zaharlanish holati
- G. Nafas olish ritmining tezlashishi
- D. Nafas olish ritmining sekinlashishi.

3. Bolalarda tana harorati qayerda o'lchanadi?

- A. Og'iz bo'shlig'i va qo'ltiq ostida
- B. Og'iz bo'shlig'i va to'g'ri ichakda
- V. Qo'ltiq ostida
- G. Qo'ltiq osti va tug'ri ichakda
- D. Tug'ri javob yo'q.

4. 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda puls qancha bo'ladi?

- A. 60-70
- B. 70-80
- V. 50-70
- G. 90-100
- D. 40-60

5. Yotoq yaralarning oldini olish uchun qanday tadbirlar ko'riladi?

- A. Bemorning vaziyatini o'zgartirib turish
- B. Orqa va dumg'azani kamfora spirtida artish
- V. Bemor terisining tozaligini saqlash.
- G. O'rin, to'shakni tez-tez almashtirish
- D. Barcha javob to'g'ri

Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: DAVOLASH MUOLAJALARI

### Darsning maqsadi:

Talabalarga davolash muolajalari to'g'risida tushuncha berish.

### Mavzuning ahamiyati:

Muolaja usullarini bilish va ularni amalda qo'llay olish birinchi tibbiy yordamni tashkil qilishda zaruriy hisoblanadi. Shu sababli dars davomida talabalarga in'ektsiya qilish, banka va gorchichniklar qo'yish, me'dani yuvish, huqna qilish kabi muolajalar o'rgatiladi.

### Q'quv maqsadlari:

1. Davolash muolajalari to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. Asosiy davolash muolajalarini to'g'ri bajara olish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. 6 yoshli bolada bosh og'rihi, titrash, qusish kuzatilmoqda. Ko'zdan kechirilganda: tana harorati  $40^{\circ}\text{S}$ , qorin og'riqsiz, halqum keskin shishgan. Onasining aytishicha, bola atsetilsalitsil kislota ichgach qayt qilgan. Shifokor kelgunicha bo'lgan yordam tadbirlari va uning xajmini qayd etib o'ting.
2. Yoshi o'tgan kishida 4 kundan buyon ichi kelmagan. Bemor ishtaha yo'qligiga, qorinning pastki qismida og'irlik va og'riq borligiga shikoyat qilmoqda. Shifokorgacha bo'lgan birinchi yordam tadbirlarini sanab o'ting va texnikasi xususida batafsil to'xtaling.
3. Bemor, ko'ngil aynish, qorinning yuqori qismida og'irlik hissi, kekirishga shikoyat qilmoqda. Uning gapiga ko'ra 4 soat avval iste'mol qilingan ovqat sifatsiz tayyorlangan bo'lishi mumkin. Bemorga ko'rsatiladigan birinchi yordam tadbirlarini qayd eting, muolajalar ustida to'liq to'xtaling.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Dorilarni tanaga kiritishning enteral yo'llarini ayting.
2. In'ektsiyaning usullarini ayting, uning kamchilik va afzalliklarini aniqlang.
3. Dorilarni sirtga qo'llash va ingalyatsiya yo'li bilan yuborishning o'ziga xos tomonlarini aytib bering.
4. Huqna turlari va ularni amalga oshirish texnikasini ayting.
5. Bemorga banka, gorchichnik va kateter qo'yish texnikasini gapirib bering.
6. Me'dani yuvish qanday amalga oshiriladi?

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Dorilarni tanaga kiritish usullarini aniqlang.

Enteral usullar	Parenteral usullar

Per os, subarochnoidal, suboxipital, per rectum, extrasellular, sublingual, subartral, mushak orasiga, venaga, teri ostiga, qorin parda ostiga, arteriya ichiga.

## 2. Quyidagi jadvalni to'ldiring

Huqna turlari	Ko'rsatmalar
Sifonli	
Tozalovchi	
Yumshatuvchi	
Dorili	
Oziqlantiruvchi	

## 3. In'ektsiya uchun mo'ljallangan dorilarning miqdorini aniqlang

Turlari	Yuboriladigan eritma miqdori
Teri ostiga	
Mushak orasiga	
Venaga 1 martalik	
Venaga tomchilab	

Mustaqil shuhullanish uchun testlar:

1. Quyidagilardan qaysi biri dori moddalarni yuborishning enteral usuliga kiradi?

- A. Mushak orasiga
- B. Og'iz orqali
- V. Venaga tomchilab
- G. Ingalyatsiya yo'li
- D. Teriga surtish

2. Quyidagilardan qaysi biri dori moddalarni yuborishning parenteral usuliga kiradi?

- A. Mushak orasiga
- B. Og'iz orqali
- V. To'g'ri ichak orqali
- G. Til ostiga
- D. Ingalyatsiya yo'li

3. Gipertonik huqnaning tarkibi qanday?

- A. 0,9% li natriy hlor eritmasi bilan 20-30% li magniy sulfat
- B. 10% li natriy hlorid va 20-30% magniy sulfat
- V. Suv va glukoza
- G. 40% glukoza va 20-30% magniy sulfat
- D. To'g'ri javob yo'q

4. Yog'li huqnalar qachon qo'llanilishi mumkin?

- A. Spastik qabziyatlarda
- B. O'tkir zaharlanishlarda
- V. Dori moddalarini og'iz orqali qabul qila olmaganda
- G. Oziqlantirish maqsadida
- D. Hammasi to'g'ri

5. In'ektsiyalarning salbiy tomonini aniqlang?

- A. Dozasining aniqligi
- B. Og'riqliligi



- V. Allergik holatlarning yuzaga kelmasligi
- G. Maxsus mutaxassis talab qilinmasligi
- D. Asoratlarning bo'lmisligi

6. Me'dani yuvishga oid ko'rsatmalarni aniqlang.

- A. O'tkir zaharlanishlarda
- B. Enteritlarda
- V. To'g'ri ichak yarasida
- G. Qabziyatlarda
- D. Jarroxlik amaliyoti oldidan

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: DESMURGIYA

### Darsning maqsadi:

talabalarga bog'lamlar to'g'risida tushuncha berish.

### Mavzuning ahamiyati:

desmurgiya bog'lamlar to'g'risidagi fan bo'lib, birinchi tibbiy yordamning bir qismidir. Har xil kelib chiqishga ega shikastlanishlar va jarohatlarda bog'lamlarni to'g'ri ishlata bilish lozim bo'ladi. Shu sababli dars davomida talabalarga bog'lamlarning asosiy turlari, ularni qo'yish texnikasi to'g'risida tushuncha beriladi.

### O'quv maqsadlari:

1. Bog'lamlarning asosiy turlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. Tananing har xil joyiga yumshoq bog'lamlarni qo'ya bilish va individual bog'lov paketidan foydalana olish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Sut bezining o'tkir yiringli yallig'lanishi (mastit) tufayli bemorda jarroxlik amaliyoti o'tkazildi. Bemorga qanday bog'lam qo'yish mumkin? Uning bosqichlarini qayd etib o'ting.
2. Avtomobil halokati tufayli erkak kishi bosh qismidan jarohat oldi. Ko'zdan kechirilganda: chakka qismining chap tomonida 3x5 sm yara aniqlanadi, undan qon oqib turibdi.

Birinchi tibbiy yordamning hajmini aniqlang. Shikastlangan kishiga qaysi bog'lamni qo'yish ma'qulroq?

3. Jinoyatchini qo'lga olish davomida ichki ishlar bo'limi xodimi jarohat oldi, ya'ni o'q uning chap yelkasini yalab o'tdi. Ko'zdan kechirilganda: chap yelkaning o'q tekkan joyida to'xtovsiz qonayotgan 6x8 sm yara aniqlandi.

Birinchi tibbiy yordam nimadan iborat? Jarohatga qaysi bog'lamni qo'yish mumkin?

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Bog'lamlarning asosiy turlari.
2. Bosh va ko'krak qafasiga ishlatiladigan yumshoq bog'lamlar
3. Tanaga ishlatiladigan yumshoq bog'lamlar.
4. Oyoq-qo'llar va chanoq sohasiga ishlatiladigan yumshoq bog'lamlar.
5. Yumshoq bog'lamlarni qo'yish qoidalari va yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xatoliklar.
6. Qattiq bog'lamlar va ularning ishlatilishi.

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Quyidagilar asosida bog'lamlarni tavsiflab bering

Bog'lamning turi	Ishlatilishi
Immobilizatsiyalovchi	
Korrigirlovchi	
Okklyuzion	
Siqib turuvchi	

2. Individual bog'lov paketidan foydalanish qoidalarini yozib bering.
3. Dezo bog'lamini qo'yishni tushuntiring va amalda ko'rsatib bering.
4. Bintlil bog'lamlarni qo'yishning umumiy qoidalarini yozib bering.

### Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. Quyidagi bog'lamlarning qaysi biri kalla suyagi shikastlanganda ishlatiladi?
  - A. Tugunsimon
  - B. Dezo bog'lami
  - V. Spiralsimon
  - G. Qaytuvchi bog'lam
  - D. Hammasi to'g'ri
  
2. Quyidagi bog'lamlarning qaysi biri ko'krak qafasi shikastlanganda ishlatiladi?
  - A. Tugunsimon
  - B. Krestsimon
  - V. Spiralsimon
  - G. Qaytuvchi boglam
  - D. Hammasi to'g'ri
  
3. Quyidagilarning qaysi biri yumshoq bog'lamlarga kirmaydi?
  - a. Bintli
  - b. Kleolli
  - v. Kosinkali
  - g. Gipsli
  - d. To'g'ri javob yo'q
  
4. Okklyuzion bog'lam nima maqsadda ishlatiladi?
  - A. Qonni to'xtatish uchun
  - B. Jarohatlangan joyni qimirlamasligi uchun
  - V. Jarohat bo'shlig'ini bekitish uchun
  - G. Mikroblar tushishiga yo'l qo'ymaslik uchun
  - D. Shikastlangan bo'g'imni xarakatchanligini ta'minlash uchun
  
5. Immobilizatsiyalovchi bog'lam nima maqsadda ishlatiladi?
  - A. Qonni to'xtatish uchun
  - B. Jarohatlangan joyni qimirlamasligi uchun
  - V. Jarohat bo'shlig'ini bekitish uchun
  - G. Mikroblar tushishiga yo'l qo'ymaslik uchun
  - D. Shikastlangan bo'g'imni xarakatchanligini ta'minlash uchun

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: ASEPTIKA VA ANTISEPTIKA ASOSLARI

### Darsning maqsadi:

talabalarga aseptika va antiseptika usullari to'g'risida tushuncha berish.

### Mavzuning ahamiyati:

mavzu davomida talabalar jarroxlik asboblari, ishlatiladigan materiallarni sterillash, qo'l yuvish usullarini o'zlashtiradilar, antiseptik va dezinfeksiyalovchi moddalar bilan tanishadilar. Bu ko'nikmalar kelgusida provizorlarga yuqumli kasalliklarni oldini olishda asqotadi.

### O'quv maqsadlari:

1. Aseptika va antiseptika usullarini bilish (1-daraja)
2. Kimyoviy antiseptik eritmalar to'g'risida tushunchaga ega bo'lish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Bemorning anamnezida yod preparatlariga allergik reaksiya bor. Jarroxlik amaliyoti o'tkaziladigan maydonni qayta ishlash uchun qaysi antiseptiklardan foydalanish mumkin?
2. Jarroh qo'lini zudlik bilan tayyorlashda foydalanish mumkin bo'lgan ratsional usulni ko'rsating. Qo'lni qayta ishlashda ko'proq foydalaniladigan barcha usullarni qayd etib o'ling.
3. Jarroxlik asboblari va rezina qo'lqoplarni planli operatsiyalarga tayyorlashda sterilizatsiya qanday o'tkaziladi? Sterilizatsiyaning optimal rejimi va usulini aniqlang.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Aseptika tushunchasi
2. Asboblari, bog'lov materiallari va oqliklarni sterillash usullari.
3. Jarroxlik blokining zonalari va rejimi
4. Qo'l yuvish usullarini aniqlang.
5. Antiseptikaning usullari.
6. Kimyoviy antiseptik eritmalar va ularning guruhlari.
7. Biologik antiseptika qanday amalga oshiriladi?

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Quyidagilardan qaysi birlari biologik antiseptikada ishlatiladi? («+» yoki «-» bilan belgilang)

Preparatlar	
Fermentlar	
Antibiotiklar	
Maxsus zardoblar	
Spirtlar	
Anatoksinlar	
Sulfanilamidlar	
Og'ir metall tuzlari	

2. Quyidagi guruhlarga mansub antiseptik preparatlarni aniqlang.

Guruhlar	Preparatlar
Galoidlar	
Kislota va ishqorlar	
Aldegidlar	
Bo'yoqlar	

3. Jarroxlikda foydalaniladigan ipni Koxer bo'yicha sterillashning bosqichlarini aniqlab bering.

I bosqich	
II bosqich	
III bosqich	
IV bosqich	
V bosqich	

Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. Quyidagi kimyoviy antiseptiklar ichidan oksidlovchilarni aniqlang.

- A. Pervomur
- B. Nashatir spirti
- V. Vodorod peroksid
- G. Xloramin B
- D. Sulema

2. Etil spirtining xususiyatlarini aniqlang

- A. Falajlovchi xususiyati
- B. Oksidlovchi
- V. O'rab oluvchi
- G. Mikroblarga qarshi
- D. To'g'ri javob yo'q.

3. Quyidagi kimyoviy antiseptiklar ichidan og'ir metall tuzlarini aniqlang.

- A. Pervomur
- B. Nashatir spirti
- V. Vodorod peroksid
- G. Xloramin B
- D. Sulema

4. Quyidagilar ichidan jarroh qulini yuvishda ishlatiladigan usullarni aniqlang

- A. Spasokukotskiy-Kochergin
- B. Alfeld
- V. Digma bilan
- G. Digmetsid bilan
- D. Hamma javob to'g'ri

5. Yiringli yara va bo'shliqlarni yuvish uchun ishlatiladigan eritmani aniqlang.
- A. 0,9% li natriy xlorid eritmasi.
  - B. Magneziya sulfatning 10% li eritmasi
  - V. Kumush nitratning 0,1-0,2% li eritmasi
  - G. Natriy xlorning 10% li eritmasi
  - D. To'g'ri javob yo'q.

Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: JAROHATLAR VA ULARNING TURLARI

### Darsning maqsadi:

talabalarga jarohatlarning turlari va ularda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam to'hrisida ma'lumot berish.

### Mavzuning ahamiyati:

jarohatlar turmushda ko'p uchraydigan hodisalardan biridir. Shu sababli jarohatlar to'g'risida tushunchaga ega bo'lish, ularda to'g'ri yordam ko'rsatishni bilish bo'lajak provizorlar uchun shart hisoblanadi.

Mavzu davomida talabalar jarohatlarni birlamchi jarroxlik qayta ishlovi, jarohatlarning asoratlari va ularni kelib chiqishiga yo'l qo'yimaslik chora-tadbirlari bilan tanishadilar.

### O'quv maqsadlari:

1. Jarohatlarning turlarini bilish, aseptik va infektsiyalangan jarohatlar to'g'risida tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. Jarohatlangan odamga birinchi tibbiy yordam berishni to'g'ri tashkil qila olish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Ayol kishini noma'lum it tishlab oldi. Ko'zdan kechirilganda: har ikkala oyoqda ko'plab jarohatlar, ularning chetlari notekis, qonab turibdi, tish izlari ko'rinib turibdi. Birinchi tibbiy yordam tadbirlarini qayd eting.

2. Ishlab turgan erkak kishi extiyotsizlik natijasida oyog'ini bolta bilan jarohatladi. Ko'zdan kechirilganda: oyoqning oldingi sohasida 12x1 sm li chopilgan jarohati. Jarohatning tubi qisman shikastlangan suyakkacha boradi, undan qon oqib turibdi.

Birinchi yordam tadbirini to'liq tavsiflab bering.

2. Texnika xavfsizligi qoidalarini buzish natijasida ishchining qo'lini stanok chaynab ketdi. Ko'zdan kechirilganda: ishchining rangi oqargan, puls bir daqiqada 100 tagacha, ritmik. Ung qo'lining bosh va ko'rsatkich barmoqlari yo'q, 3-4-barmoqlarning terisi shilingan, defektning chetlari tekis. Birinchi tibbiy yordam tadbirlarini aniqlang.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Jarohatlarning umumiy belgilarini aytib bering.
2. Jarohatlarning tasnifi.
3. Jarohatlarda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlari.
4. Jarohatlarni davolash printsiplari
5. Jarohatlarning asoratlari va ularni oldini olish.

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Jarohatlarning tasnifini aniqlang

Jarohatlovchi asbobning tavsifiiga ko'ra:	
Kelib chiqishiga ko'ra:	
Tana bo'shliqlariga bo'lgan munosabatiga ko'ra:	
Infektsiyalanganiga ko'ra:	

2. Jarohatlarni birlamchi jarroxlik qayta ishlovining bosqichlarini to'liq yozib bering.

## 3. Yiringli yaralarni davolash tadbirlarini aniqlang

Yallig'lanish fazasida ko'riladigan tadbirlar	
Regeneratsiya fazasida ko'riladigan tadbirlar	

Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. O'q tekkan jarohatlarning turlarini aniqlang
  - a. Teshib o'tadigan va o'tmaydigan
  - b. Zaharlangan va zaharlanmagan
  - v. Infektsiyalangan va aseptik
  - g. Ochiq va yopiq
  - d. Hammasi to'g'ri
  
2. Jarohatlarning belgilarini aniqlang
  - a. Og'riq
  - b. Qon ketish
  - v. Tromb hosil bo'lishi
  - g. To'qima chetlarining qochishi
  - d. Hammasi to'g'ri
  
3. Jarohatlarning asoratlariga kirmaydigan belgini aniqlang.
  - A. Kamqonlik
  - B. Yiringli yallig'lanishlar
  - V. Sepsis
  - G. Biriktiruvchi to'qimaning o'sishi
  - D. Teridagi mahalliy allergik o'zgarishlar.
  
4. Jarohatlarda BTYo tadbirlarini aniqlang.
  - A. Jarohat ustidan jgut qo'yish
  - B. Jarohatni birlamchi qayta ishlov
  - V. Jarohatni 96<sup>0</sup>li etil spirti bilan ishlov
  - G. Jarohatga kislota va ishqorlar bilan ishlov
  - D. Hammasi to'g'ri.
  
5. Jarohatlangan to'qimalarning tez bitishi nimalarga bog'liq?
  - A. Jarohat chetlarining jiplashishi
  - B. Gematoma bo'lmasligi
  - V. Mikroblarning bo'lmasligi
  - G. To'qimaning qon bilan ta'minlanishi etarliligi
  - D. Hamma javoblar to'g'ri.



### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: QON OQISHI VA UNI TO'XTATISH. QON YO'QOTISHNING UMUMIY BELGILARI.

### Darsning maqsadi:

talabalarga qon oqishi, uning turlari, belgilari, qon oqishida ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam va qon qo'yish usullari haqida tushuncha berish.

### Mavzuning ahamiyati:

qon oqishning turlarini bilish, arterial, venoz, kapillyar va aralash qon oqish turlarini bir-biridan farqlay olish, qon oqishida BTYo ko'rsatishni bilish va ularni amalda qo'llay olish aloxida ahamiyatga ega. Dars davomida talabalarga jarohatlangan to'qimani qattiq bog'lash va bu joyni gavdadan yuqoriga ko'tarib qo'yish, oqayotgan qon tomirni barmoqlar bilan bosib turish, oyoq yoki qulni qattiq bukib turish, jugut qo'yish tadbirlari o'rgatiladi.

### O'quv maqsadlari:

1. Qon oqishining umumiy belgilari va turlarini bilish, arterial, vengoz, kapillyar, parenximatoz qon oqishlar tug'risida tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. Qon oqayotgan odamga birinchi tibbiy yordam berishni to'g'ri tashkil qila olish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Avtomobil halokati tufayli haydovchi o'ng elkasidan va burundan jarohat oldi. Jarohatdan to'xtovsiz qon oqib turibdi, uning rangi och bo'lib, tezda qo'yilgan bog'lamni nam qilib yuboradi. Jabrlanuvchining rangi oqargan, pulsi tezlashgan, chap qo'lda hatto aniqlanmaydi. Qon oqishning turini va birinchi tibbiy yordam tadbirlarini aytib bering.
2. Ayol kishida anchadan buyon oyoq venalarining varikoz kengayishi mavjud. To'satdan jarohatlanish tufayli unda to'xtovsiz qon ketishi kuzatildi. Oyoqdan oqayotgan qonning rangi to'q bo'lib, muntazam sizib chiqmoqda. Qon ketishining turini va birinchi tibbiy yordam tadbirlarini aniqlang.
3. Bemorda ancha yillardan buyon me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi mavjud. U to'satdan rangi oqarib, boshi aylandi va ko'ngli aynib qusdi. Qusuq massasi kofe rangida. Bemorning pulsi tezlashgan, yuzaki. Qorinning tepa qismida kuchli og'riq sezmoqda. Ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordamning hajmini aniqlang.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Qon oqishining umumiy belgilari va darajalari, ularning bir-biridan farqini tushuntiring.
2. Qon oqishining tasnifi.
3. Tashqi qon oqishida birinchi tibbiy yordam tadbirlarini tushuntiring.
4. Ichki qon oqishida birinchi tibbiy yordam tadbirlarini ayting.
5. Qon oqishning asoratlari va ularni oldini olish.
6. Qon quyishning usullarini gapirib bering.
7. Qon guruhlari va rezus-omilni aniqlash, ularni ahamiyati.
8. Qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar to'g'risida tushuncha.

**Mustaqil bajarish uchun vazifalar:**

1. Qon oqishining turlariga xos belgi va asoratlarni yozib bering

Qon oqish turlari	Belgilari	Asoratlari
Arterial		
Venoz		
Kapillyar		
Ichki a'zolardan qon ketishi		

2. Qon yo'qotishning darajalarini tavsiflab bering

Belgilar	Yengil	O'rta	Og'ir
Yo'qotilgan qon hajmi			
Puls			
Arterial bosim			
Eritrotsitlar va gemoglobin miqdori			
Bemor terisining rangi va boshqa belgilar			
Kompensatsiyalanishi			

3. Qon oqishini to'xtatishning usullarini aniqlang.

Vaqtinchalik tadbirlar	
Uzil-kesil to'xtatish tadbirlari:	
Mexanik	
Fizik	
Kimyoviy	
Biologik	

4. Jgut qo'yishning qoidalarini tuluq yozib bering.

**Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:**

1. Qon ketishda birinchi tibbiy yordam tadbirlariga kirmaydi

- a. Jgut quyish
- b. Qon va qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar yuborish
- v. Siqib turuvchi bog'lam quyish
- g. Arteriyani bosib turish
- d. Geparin eritmasi yuborish

2. Qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar qatoriga kiradigan vositani aniqlang.

- A. Kaltsiy xlorid
- B. Vikasol
- V. Kaltsiy glyukonat
- G. Jelatinol
- D. Vitamin K

3. Quyidagi preparatlardan qaysi biri qonni to'xtatish xususiyatiga ega emas?

- A. Kaltsiy xlorid
- B. Vikasol
- V. Kaltsiy glyukonat
- G. Atsetilsalitsil kislota

## D. Vitamin K

4. Diapedez qon ketish deb nimaga aytiladi?

- A. Qon tomir butunligi buzilmasdan turib
- B. Qon tomirlarning yiringli yallig'lanish yoki nekrozida
- V. Ichki a'zolar shikastlanganda
- G. Jarohatlarda
- D. To'g'ri javob yo'q

5. Arroziv qon ketishlar deb nimaga aytiladi?

- A. Qon tomir butunligi buzilmasdan turib
- B. Qon tomirlarning yiringli yallihlanish yoki nekrozida
- V. Ichki a'zolar shikastlanganda
- G. Jarohatlarda
- D. To'g'ri javob yo'q

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: SOVUQ OLISH, KUYISH VA ULARNING TURLARI.

### Darsning maqsadi:

talabalarga sovuq olish va kuyishning darajalari va ularda ko'rsatiladigan BTYo tadbirlari bilan tanishtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

dars davomida talabalar kuyishning va sovuq olishning turlari, darajalari va ularni davolashning asosiy printsiplari bilan tanishtiriladi. Ular kuygan va sovuq olgan kishiga BTYo ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qiladilar.

### O'quv maqsadlari:

1. Sovuq olish va kuyish to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lish (1-daraja).
2. Sovuq olgan va kuygan odamga BTYo ko'rsatish (2-daraja).
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Erkak kishida uzoq vaqt sovuqda qolgach, og'riqlar, barmoqlarning bukila olmasligi sezildi. Isitilganda har ikkala oyoqda shishlar va qonli suyuqlik bilan to'lgan pufakchalar paydo bo'ldi. Sovuq olishning darajasini va BTYo ni aniqlang.
2. Ayol kishi oshxonada qaynoq suvni oyoqlariga to'kib yubordi. Kuzdan kechirilganda: bemor bezovtalangan, har ikkala oyoq rangi qizil, markazda tiniq suyuqlik bilan to'lgan pufakchalar mavjud. Kuyishning darajasi va BTYo ni aniqlang.
3. Talaba kimyoviy laboratoriyada amaliy mashg'ulot paytida quliga kontsentrlangan xlorid kislotani to'kib yubordi. Kuriladigan chora-tadbirlarni aniqlang.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Kuyish turlarini ayting.
2. Kuyishning darajalari va uni aniqlash usullari.
3. Kuyishda BTYO va davolashni aniqlang.
4. Sovuq olish sabablari va darajalarini ayting.
5. Sovuq olishda BTYo.
6. Sovuq olishni davolash usullari.

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Termik kuyishning darajalarini tavsiflang.

Darajalari	Belgilari
I daraja	
II daraja	
III A-daraja	
III B-daraja	
IV-daraja	

2. Sovuq olishning darajalarini tavsiflang.

Darajalari	Belgilari
I daraja	
II daraja	
III daraja	
IV daraja	

3. Sovuq olishda ko'rsatiladigan BTYo tadbirlarini aniqlang.

Dala sharoitida	Uy sharoitida	Ambulatoriya sharoitida

**Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:**

1. Kuyishning 2-darajasida ko'zatiladigan belgilarni aniqlang.

- A. Qonli pufakchalarning bo'lishi
- B. Teri tomirlarining trombozi
- V. Kumirlanish
- G. Hujayra oqsillarining koagulyatsiyasi
- D. Tiniq suyuqlik saqlagan pufakchalarning bo'lishi.

2. Kuyishning 4-darajasida ko'zatiladigan belgilarni aniqlang.

- A. Qonli pufakchalarning bo'lishi
- B. Terining qizarishi
- V. Kumirlanish
- G. Xujayra oqsillarining koagulyatsiyasi
- D. Tiniq suyuqlik saqlagan pufakchalarning bo'lishi.

3. Kuyish kasalligida kuzatiladigan asoratlarni qayd eting.

- A. Kuyish shoki
- B. O'tkir kuyish toksemiyasi
- V. Tana haroratining ko'tarilishi.
- G. Ichki a'zolar faoliyatining buzilishi.
- D. Hammasi to'g'ri.

4. Sovuq urishning 3-darajasida qanday BTYo ko'rsatiladi?

- A. Bemorni issiq vannaga kiritish
- B. Terini massaj qilish
- V. Teriga yog' va mazlar surtish.
- G. Bemorni asta-sekin isitish va og'riqsizlantiruvchilar berish.
- D. Bog'lam qo'yish.

5. Elektr tokidan shikastlangan odamga BTYo ko'rsatish tadbirlariga qo'yidagilardan qaysi biri kirmaydi?
- A. Jabrlanuvchini elektr tokidan ajratish
  - B. Mahalliy kuygan sohani tozalash
  - V. Yurak faoliyatini tiklash
  - G. Bemorni tuproqqa ko'mib qo'yish
  - D. Sun'iy nafas oldirish.

#### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

#### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: SHIKASTLANISHLAR. YUMSHOQ TO'QIMALARNING SHIKASTLANISHI. BTYo.

### Darsning maqsadi:

talabalarni shikastlanishlarning turlari, belgilari va ularda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlari bilan tanishtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

mavzuni o'zlashtirish davomida talabalar shikastlanishlarning klinikasi, diagnostikasi, yumshoq to'qimalar shikastlanganda, uzoq vaqt bosilib qolish sindromi ko'zatilganda birinchi tibbiy yordam berish ko'nikmalarini hosil qiladilar. Bu ko'nikmalar ularga favqulodda hodisalar yoki shikastlanishlar yuz berganda jabrlangan odamga shifokorgacha bo'lgan tibbiy yordamni to'g'ri tashkil qilishda asqotadi.

### O'quv maqsadlari:

1. Yumshoq to'qimalarning shikastlanishi va uzoq vaqt bosilib qolish sindromi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. Shikastlanishlar va uzoq vaqt bosilib qolish sindromi kuzatilganda tibbiy yordam bera olish ko'nikmalariga ega bo'lish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Yosh ayol tez yurgan vaqtda to'satdan oyog'ini qayirib oldi. Ko'zdan kechirilganda: boldirpanja bo'g'imida shish, bo'g'imning tashqi yuzasida qontalash, paypaslanganda shu sohada kuchli og'riq, harakat qilganda og'riq kuchaygani sababli harakatni cheklanishi aniqlanadi. Tovon bilan sekin bosilganda og'riq kamroq. Shikastlanishning turini va birinchi tibbiy yordamni aniqlang.
2. Futbol o'ynash davomida yosh yigit raqib bilan to'qnashib ketdi va son sohasidan shikastlandi. Ko'zdan kechirilganda: umumiy holati qoniqarli. O'ng son sohasida tarqalgan qontalash, shu sohaning aylanasi chap songa qaraganda 2 sm kattaroq. Sonning yumshoq to'qimalari paypaslanganda og'riqli, bu harakat vaqtida keskin kuchayadi. Shikastlanishning turi va birinchi tibbiy yordam tadbirlarini aniqlang.
3. Favqulodda hodisa tufayli vayron bo'lgan tumanda jabrlangan odamlarni qidira turib, qutqaruvchilar bino vayronalari ostida qolib ketgan odamni topib olishdi. Jabrlanuvchi behush holatda, puls tezlashgan, arterial bosim pasayib ketgan. Teri rangi oqarib ketgan, shishgan va ko'kargan sohalar mavjud. Birinchi tibbiy yordam bosqichlarini to'liq gapirib bering.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Shikastlanishlarning tasnifi.
2. Yumshoq to'qimalarning yopiq shikastlanishlari va ularda birinchi tibbiy yordam.
3. Uzoq vaqt bosilib qolish sindromi, patogenezi va belgilari.
4. Uzoq vaqt bosilib qolish sindromi kuzatilganda birinchi tibbiy yordam tadbirlari.



Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Quyidagilar asosida shikastlanishlarni ta'riflang

Turlari	Sabablari
Ishlab chiqarishga oid	
Ishlab chiqarishga oid bo'lmagan	
Qasddan qilingan	
Harbiy	

2. Yumshoq to'qimalarning shikastlanishi belgilari va birinchi tibbiy yordamni aniqlang

Shikastlanish turi	Belgilari	Birinchi tibbiy yordam
Lat yeish		
Paylarning cho'zilishi		
Mushaklarning yorilishi		

3. Uzoq vaqt bosilib qolish sindromida ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam bosqichlarini yozib bering.

Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. Quyidagilardan qaysi biri yumshoq to'qimalarning shikastlanishiga kiradi?

- A. Kalla suyagining yorilishi
- B. Kimyoviy moddalardan zaharlanish
- V. Suyaklarning chiqishi
- G. Paylarning cho'zilishi
- D. Suyaklarning ochiq va yopiq sinishi

2. Pay chuzilganda ko'rsatiladigan yordam tadbirlariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

- A. Muzli xaltacha quyish
- B. Og'riqsizlantirish
- V. Bosib turuvchi bog'lam qo'yish
- G. Harakatsizlantirish
- D. Nafas va yurak faoliyatini tiklash

3. Uzoq vaqt bosilib qolish sindromi patogenezini aniqlang.

- A. Travmatik toksikoz
- B. Plazma yo'qotish
- V. Kuchli og'riq
- G. MNS va ichki a'zolar faoliyatining buzilishi
- D. Hammasi to'g'ri

4. Uzoq vaqt bosilib qolish sindromida ko'rsatiladigan tibbiy yordam tadbirini aniqlang

- a. Qon ketishini to'xtatish
- b. Kalla suyagiga yumshoq bog'lam qo'yish
- v. Gips quyish
- g. Birlamchi jarroxlik qayta ishlovi
- d. Og'riqsizlantirish

5. Travmatik asfiktsiya nima?

- A. Nafas olishning oqirlashishi.
- B. Pulsning tezlashishi
- V. Kukrak sohasida terining ko'karishi
- G. MNS faoliyatining buzilishi
- D. Hammasi to'g'ri

#### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

#### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: BOSHI MIYA SHIKASTLANISHI VA ULARNING TURLARI.

### Darsning maqsadi:

talabalarni bosh miya shikastlanishlarining belgilari, turlari va ularda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlari bilan tanishtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

mavzuni o'zlashtirish davomida talabalar bosh miya, yuz va umurtqa pog'onasining shikastlanishlarining klinikasi, diagnostikasi va ularda birinchi tibbiy yordam berish ko'nikmalarini hosil qiladilar. Bu ko'nikmalar ularga favqulodda hodisalar yoki shikastlanishlar yuz berganda jabrlangan odamga shifokorgacha bo'lgan tibbiy yordamni to'g'ri tashkil qilishda asqotadi.

### O'quv maqsadlari:

1. Bosh suyagining va umurtqa pog'onasining shikastlanishi, miya yumshoq to'qimalarining ezilishi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. Bosh miya va umurtqa pog'onasining shikastlanishi, miya yumshoq to'qimalarining ezilishida birinchi tibbiy yordam bera olish ko'nikmalariga ega bo'lish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Erkak kishi kalla suyagi bilan urildi va qisqa vaqtga xushidan ketdi. O'sha vaqtda bemor bir marta qusib, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'ngil aynishiga shikoyat qildi. Ko'zdan kechirilganda: terining oqarishi, ritmik puls daqiqada 68 ta, kalla suyagining orqa sohasida teri qon tomirlarining yorilishi, ushlab ko'rilganda qattiq og'riq, ko'z qorachiqiqlari bir xilda, bemor qiyinchilik bilan boshini pastga egishi ko'zatildi. Shikastlanish turini va unga ko'rsatilishi kerak bo'lgan BTYo ni aniqlang.

2. Ayol kishi baxtsiz transport halokati tufayli boshidan qattiq shikastlandi. Qanday shikastlanganligi esida yo'q. Ko'zdan kechirilganda: o'yqu aralash holatda, savollarga javoblari noaniq, yuzi oqargan, pulsi daqiqada 62 ta, ko'kargan jarohat ulchami 8x 1,5 sm, yetarli darajada qon oqqan, tili biroz chapga tortilgan, ung ko'zning qorachig'i chapiga ko'ra kengaygan. Shikastlanish turini va unda ko'rsatiladigan BTYo ni aytib bering.

3. O'smir yigitning boshiga janjal vaqtida musht tushirishdi.

Uning aytishicha zarbadan ko'z oldi qorong'ilashib ketgan, es-xushini yo'qotmagan, ko'ngil aynishi va qusish kuzatilmagan. Shikoyati-bosh og'rishi. Ko'zdan kechirilganda: fikrlashi tiniq, harakatlari tez va to'g'ri, ko'zi yumuq holda barmog'ini burnining uchiga adashmasdan tekkiza oldi, boshini bemalol keragicha ega oladi. Bu qanday shikastlanish? Bemorni kasalxonaga yotqizish shartmi? Bunda ko'rsatiladigan BTYo nimadan iborat?

4. Ayol kishi 1,5 m balandlikdan yiqilib tushdi va natijada ko'krak qafasining chap tarafi shikastlandi. Bemor ko'krak qafas qismida og'riq borligini va bu og'riq chuqur nafas olganda, yutalganda kuchayayotganligidan shikoyat qildi. Ko'zdan kechirilganda: terining rangi o'zgarmagan, nafas soni daqiqada 18-20 ta, nafas olganda ko'krak qafasining chap tomoni shikastlanganligi sezilib turibdi. Palpatsiyada chap tomondan ko'krak qafasi suyaklarida kuchli og'riq bo'lib, bu yutal va chuqur nafas olganda kuchayganligi kuzatildi. Shikastlanish turini va BTYo ni ketma-ketlikda tushuntirib bering.

Mavzuning asosiy savollari:

1. Boshning shikastlanishi , turlari, kechishi va asoratlarini tushuntiring.
2. Miyaning shikastlanishi, miyaning ezilishi va urilishini aytib bering.
3. Bosh miyaning shikastlanishida ko'rsatiladigan BTYo ning tadbirlarini aytib bering.
4. Umurtqa pog'onasining shikastlanishi belgilari, asoratlari va unda ko'rsatiladigan BTYo ning tadbirlarini aytib bering.

Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Quyidagilar asosida bosh miya shikastlanishlarni ta'riflang.

Turlari	Sabablari	Asoratlari
Bosh suyagining ochiq sinishiga oid		
Bosh suyagining yopiq sinishiga oid		
Miyaning urilishiga oid		
Miyaning ezilishiga oid		

2. Bosh miya chayqalishi darajalari, belgilari va unda ko'rsatiladigan BTYo tadbirlarini aniqlang.

Miya chayqalishi darajalari	Belgilari	Birinchi tibbiy yordam

3. Umurtqa pog'onasi shikastlangan odamga ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlarini bosqichma-bosqich yozib bering.

Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. Kalla suyagi shikastlanganda es-xushning buzilishining qaysi turlari uchraydi?

- A. Amneziya
- B. Uyquchanlikholati
- V. Sopor holati
- G. Komatoz holati
- D. Hammasi to'g'ri

2. Bosh miya shikastlanishiga kirmaydigan holatni ko'rsating.

- A. Miya chayqalishi
- B. Miya ezilishi
- V. Uzoq vaqt ezilish sindromi
- G. Miya urilishi
- D. Kalla suyagining yorilishi

3. Miya chayqalishining og'ir darajasida ko'zatiladigan belgilarni aniqlang.

- A. Qisqa vaqt es-xushni yuqotish
- B. Bir necha kun davomida es-xushning yuqolishi
- V. Harakatchanlik
- G. Nafas va yurak faoliyatining o'zgarmasligi
- D. Xotiraning o'zgarmasligi.

4. Umurtqa pohnasining pastki qismi singanda ko'zatiladigan belgilarni aniqlang.

- A. Qusish
- B. Xotiraning yo'qolishi
- V. Oyoq va qulning falajlanishi
- G. Harakatchanlik
- D. Nafas va yurak faoliyatining o'zgarmasligi

5. Umurtqa pog'onasi shikastlanganda BTYo ni ko'rsating.

- A. Bog'lam qo'yish
- B. Gipslash
- V. Qonni to'xtatish
- G. Immobilizatsiya va kasalxonaga jo'natish
- D. Qon bosimini o'lchash.

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: ChIQISH VA SINISHLAR. ULARNING TURLARI. BTYo.

### Darsning maqsadi:

talabalarni suyaklarning sinishi va chiqishi, turlari, belgilari va ularda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlari bilan tanishtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

mavzuni o'zlashtirish davomida talabalar suyak sinishi va chiqishining asosiy belgilari, turlari, bunday holatda transport immobilizatsiyasini tashkillashtirish, gips qo'yish qoidalari va ularda birinchi tibbiy yordam berish ko'nikmalarini hosil qiladilar.

### O'quv maqsadlari:

1. Suyak sinishi va chiqishi turlari, belgilari va uning asoratlari, diagnostikasi va davolanishi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. Suyak sinishi va chiqishida birinchi tibbiy yordam berishni bilish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Ayol kishi tez yurib ketayotib qoqilib ketdi va boldir-panja bo'g'im sohasida qattiq og'riq his qildi. Ko'zdan kechirilganda: boldir-panja bo'g'imining shishgani va paypaslanganda kuchli og'riq seziladi. Og'riq tufayli harakatlar keskin cheklangan, tovonni sekin bosganda boldir-panja bo'gimi sohasida og'riq kuchayadi. Shikastlanish turi va BTYo ni aniqlang.
2. Avtomobil to'qnashuvi tufayli ayol kishi ung boldir sohasida og'ir shikastlanish oldi. Kuchli og'riqlar va harakat qila olmayotganligidan shikoyat qildi. Ko'zdan kechirilganda: teri qavatlarida oqargan, puls 1 daqiqada 100 ta, tulishishi qoniqarli. O'ng boldir sohasida chuqur jarohat bo'lib undan to'xtovsiz qon oqqan, singan katta boldir suyagi ko'rinib turibdi. O'ng oyoq biroz qisqargan va deformatsiya kuzatiladi. Shikastlanishning turi va BTYo ni aniqlang.
3. Keksa kishi sirpanib ketib qo'lini jarohatladi. Qo'l sohasida kuchli og'riq bo'lib, u qo'lning har qanday harakati paytida kuchayadi. Bo'g'imning konfiguratsiyasi keskin o'zgargan. Jabrlanuvchida shikastlanishning qaysi turi? Birinchi tibbiy yordam tadbirlarini aniqlang.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Suyaklarning chiqishi, belgilari, ularda birinchi tibbiy yordam.
2. Suyaklarning sinishi, sabablari, belgilari.
3. Suyaklar singanda birinchi tibbiy yordam tadbirlari.
4. Shinalar va ularning amalda ishlatilishi
5. Suyaklar singanda davolash printsiplari.

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Suyaklar sinishining tasnifini bering

Suyak o'qining uzunligiga ko'ra	
Suyakning qaysi qismida joylashganligiga ko'ra	
Teri butunligining buzilgan yoki yo'qligiga qarab	

2. Suyak chiqishi va sinishining asosiy belgilarini aniqlang

Suyaklarning sinishi	Belgilari
Suyaklarning chiqishi	

3. Transport immobilizatsiyasining qoidalari yozib bering.

### Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. Suyak chiqishining belgilariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?
  - A. Shish hosil bo'lishi
  - B. Qon quyilishi
  - V. Bo'g'im uzunligining o'zgarishi
  - G. Bo'g'im sohasida qattiq og'riq
  - D. Teri butunligining buzilishi
  
2. Suyaklarning travmatik chiqishida birinchi tibbiy yordamni aniqlang?
  - A. 2 % li sirka kislotasi bilan ishlov berish
  - B. Immobilizatsiyalovchi bog'lam qo'yish
  - V. Shina qo'yish
  - G. Gipsli bog'lam qo'yish
  - D. Hammasi to'g'ri
  
3. Suyaklar sinishida birinchi tibbiy yordamni aniqlang
  - A. 2 % li sirka kislotasi bilan ishlov berish
  - B. Bo'g'im sohasini massaj qilish
  - V. Shina qo'yish
  - G. Birlamchi jarroxlik qayta ishlovi
  - D. Hammasi to'g'ri
  
4. Qovurg'a suyagi singanda qanday shinadan foydalaniladi?
  - A. Norvonsimon simli shina
  - B. To'rsimon shina
  - V. Elanskiy shinasi
  - G. Fanerli shina
  - D. Diterixs shinasi
  
5. Suyak sinishining belgilariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?
  - A. Patologik harakatchanlik
  - B. Qon oqishi
  - V. Bo'g'im uzunligining o'zgarishi
  - G. Og'riq
  - D. Yurak ritmining o'zgarishi

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: O'TKIR VA SURUNKALI JARROXLIK INFEKTSIYALARI. BTYo.

### Darsning maqsadi:

talabalarni o'tkir va surunkali jarroxlik infeksiyalari va ularda ko'rsatiladigan tibbiy yordam tadbirlari bilan tanishtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

mavzuni o'zlashtirish davomida talabalar furunkul, karbunkul, limfadenitlar, abtsess, flegmona kabi maxalliy yiringli infeksiyalar, shuningdek, gazli gangrena va qoqshol kabi kasalliklar bilan tanishadilar. Bularni oldini olish va tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlarini o'rganadilar. Talabalar yaralarni yuvish, bog'lamlarni almashtirish, yiringli infeksiyalarda antibiotiklar va boshqa dorilarni tayinlash ko'nikmalarini hosil qiladilar.

### O'quv maqsadlari:

1. Aerob va anaerob jarroxlik infeksiyalari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. O'tkir va surunkali jarroxlik infeksiyalarida tibbiy yordam bera olish ko'nikmalariga ega bo'lish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Yosh yigit bo'yin sohasida keskin og'riq, titrash, bo'yinni harakatlantira olmaslik kabi shikoyatlar bilan murojaat qildi. Uning so'zlariga qaraganda bo'yinda furunkul tufayli 3 hafta oldin davolangan. Furunkul o'rni yaqindagina tuzalgan. Ko'zdan kechirilganda: bo'yinni orqa qismida, boshning sochli qismi yaqinida to'qimalarning qizarishi va kuchli shish mavjud. Sekin paypaslab ko'rilganda 5x5 sm li og'riqli dag'allashuv aniqlanadi. Tashxis va tibbiy yordam tadbirlarini ko'rsating.
2. 40 yoshlardagi ayol chap oyoqda og'riq, isitma, titrash, og'riq tufayli yura olmaslik kabi shikoyatlar bilan murojaat qildi. Ko'zdan kechirilganda: chap oyoqning boldir va panja qismida tarqalgan qizarish, to'qimalarning shishi mavjud. Boldir venalari burtib chiqqan, paypaslaganda og'riqsiz. Chap boldir va panja sohasi paypaslanganda harorati yuqoriligi seziladi. Tashxis va tibbiy yordam tadbirlarini aniqlang.
3. O'smir yigit chov sohasida og'riq, titrashga shikoyat qilmoqda. Uning gapiga ko'ra 3 kundan buyon og'riydi, shu payt chov sohasida terining qizarganligini sezgan. Ko'zdan kechirilganda: tana harorati 40<sup>0</sup> S dan yuqori, chov sohasida terining qizarishi, uning markazida 2x2 sm li ko'kish rangli burtib chiqqan soha aniqlanadi. Chov sohasida teri harorati yuqori, paypaslaganda kuchli og'riq bor. Tashxis va birinchi tibbiy yordam tadbirlari nimalardan iborat?

### Mavzuning asosiy savollari:

1. O'tkir yiringli infeksiyalar: panaritsiy, furunkul, karbunkul, lifadenit, limfangit, abtsess, flegmonalarning sabablari va davolash tadbirlari.
2. Sepsis va uni davolash usullari
3. Yiringli infeksiyalarni oldini olish tadbirlari
4. Yiringli infeksiyalarni davolashning umumiy usullari
5. Qoqshol, uning oldini olish va davolash tadbirlari.
6. Surunkali jarroxlik infeksiyasi to'g'risida tushuncha.



Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Jarroxlik infeksiyalarining tasnifini keltiring

O'tkir jarroxlik infeksiyalari	Surunkali jarroxlik infeksiyalari

2. O'tkir yiringli infeksiyalarning belgilarini yozib bering

Mahalliy belgilar	Umumiy belgilar

3. O'tkir yiringli infeksiyalarni oldini olish tadbirlarini yozib bering

Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. O'tkir yiringli infeksiyalarning oldini olish tadbirlariga kirmaydi

- A. Aseptika-antiseptika qoidalariga amal qilish
- B. Bo'limdagi xodimlarni sanatsiya qilish
- V. Yiringli kasallik aniqlangan bemorlarni alohidalash
- G. Zardob yuborish
- D. Faol emlash

2. Furunkul deb nimaga aytiladi?

- A. Soch qopchasi, ter bezlarining yiringli yallig'lanishi
- B. Limfa tomirlarining yallig'lanishi
- V. Limfa bezlarining yallig'lanishi
- G. Teri osti to'qimalarining tarqalgan yiringli yallig'lanishi
- D. To'qimalarning chegaralangan yiringli yallig'lanishi

3. Abtsess deb nimaga aytiladi?

- A. Soch qopchasi, ter bezlarining yiringli yallig'lanishi
- B. Limfa tomirlarining yallig'lanishi
- V. Limfa bezlarining yallig'lanishi
- G. Teri osti to'qimalarining tarqalgan yiringli yallig'lanishi
- D. To'qimalarning chegaralangan yiringli yallig'lanishi

4. Sepsis uchun tegishli belgini ajrating.

- A. Turg'un va yuqori isitma holati
- B. Kamqonlik
- V. Leykotsitlar soni kamayishi
- G. Arterial bosimning yuqori bo'lishi
- D. Teri allergik reaksiyalari

5. Gazli gangrenaga xos belgini aniqlang.

- A. Terida yiringli yallig'lanishni bo'lishi
- B. Teri ostida gaz pufaklarining yig'ilishi
- V. Tana haroratining tushib ketishi
- G. Arterial bosimning yuqori bo'lishi
- D. Teri allergik reaksiyalari

6. Qoqsholga xos belgini aniqlang
- A. Terida yiringli yallig'lanishni bo'lishi
  - B. Teri ostida gaz pufaklarining yig'ilishi
  - V. Tana haroratining tushib ketishi
  - G. Arterial bosimning yuqori bo'lishi
  - D. Mushaklarning tonik va klonik tirishishlari

Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: O'TKIR JARROXLIK KASALLIKLAR VA B.T.Yo.

### Darsning maqsadi:

talabalarni o'tkir jarroxlik kasalliklarining turlari, belgilari va ularda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlari bilan tanishtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

ma'lumki, o'tkir jarroxlik kasalliklar: appenditsit, o'tkir ichak tutilishi, o'n ikki barmoqli ichak, me'da yaralarining teshilishi aholi orasida ko'p uchraydi va shoshilinch tibbiy yordam berishni talab qiladi. Mavzu davomida talabalar shu kasalliklarning sabablari, belgilari va birinchi tibbiy yordam berish tadbirlari bilan tanishadilar.

### O'quv maqsadlari:

1. O'tkir jarroxlik kasalliklar to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. O'tkir jarroxlik kasalliklarida birinchi tibbiy yordam bera olish ko'nikmalariga ega bo'lish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Yosh yigit qornida og'riqning 6 soat mobaynida o'tib ketmayotganligidan shikoyat qildi. 2 marta qayd qilgan, ammo yengillik sezilmagan, tana harorati  $37,7^{\circ}$  S gacha ko'tarilgan. Og'riq qorinning o'ng tomonining pastki qismida bo'lib, ich qotishi ko'z atilmagan, qorin taranglashgan va palpatsiyada kuchli og'riq. Kasallik turi va BTYo ni ko'rsating.
2. Yosh ayol kishi 4 soat oldin qorning pastki qismida o'tkir, kuchli og'riq turganligini va natijada boshi aylanganligi, ko'z oldi xiralashgani va nafas yetmaganligidan shikoyat qildi. Bemorda hayz kelishi 2-3 haftaga kechikkan. Ko'zdan kechirilganda: bemorning rangi oqargan, pulsi daqiqada 110 ta, ancha madorsiz. Qorni ancha tarang, qorinning pastki qismi qul bilan bosib ko'rilganda og'riq bor. Bu bemorda qanday kasallik bo'lishi mumkin va unga BTYo tadbirlarini hamda shifoxonaga transportirovka qilish usulini ayting.
3. Yosh kishida qorinning yuqori qismida to'satdan og'riq turdi. Uning aytishicha 5 yildan buyon oshqozon yara kasalligidan qiynaladi. Bemor og'riq turgan paytlarda atropin va analgin dorilarini qabul qilganligi va ayni paytda ham unga ushbu dorilarni berishni so'radi. Kuzatilganda: rangi oqargan, puls daqiqada 120 ta, to'lishishi sust. Og'riq kuchli bo'lganligi sababi bemor qorniga qo'l tekkizishga yul qo'ymadi. Bemorda qanday asoratlarga shubhalanish mumkin? Bunday BTYo tadbirlarini aniqlang.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. O'tkir appenditsitda birinchi tibbiy yordam tadbirlarini aytib bering
2. O'tkir xoletsistit, sabablari, belgilari va BTYo
3. O'tkir pankreatit, sabablari, belgilari va BTYo
4. O'tkir peritonitlar, sabablari, belgilari va BTYo
5. O'tkir ichak tutilishi va unda BTYo
6. Me'da va o'n ikki barmoqli ichak yarasi teshilishida BTYo

Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. O'tkir ichak tutilishining turlari va sabablarini aniqlang

Turlari	Sabablari

2. Qorin bo'shlig'ining o'tkir jarroxlik kasalliklarida shifokor ko'rguncha qilinishi man etiladigan tadbirlarni yozib bering

3. Me'da va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligiga tegishli ma'lumotlarni to'ldiring

Asoratlari	BTYo tadbirlari

Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

- Appenditsitga xos bo'lgan belgini aniqlang
  - Qorin devori mushaklarining tarangligi
  - Leykotsitlar sonining kamayishi
  - O'tkir kamqonlik
  - Holsizlanish
  - Tush sohasida og'riq
- Me'dadan qon ketganda kuzatiladigan asosiy belgini aniqlang.
  - Qorin devori mushaklarining tarangligi
  - Leykotsitlar sonining kamayishi
  - Kofe qo'yqasi ko'rinishida qusish.
  - Holsizlanish
  - Tush sohasida og'riq
- Me'da va 12 barmoqli ichak yarasi teshilganda BTYo ni aniqlang.
  - Bemorga suyuqlik ichirish
  - Me'dani chayish
  - Huqna qilish
  - Qorin sohasiga issiq qo'yish
  - Muzli xaltacha qo'yish.
- O'tkir xolitsistit kasalligi turlariga kirmaydi
  - Kataral xolitsistit
  - Gangrenoz xolitsistit
  - Flegmanoz xolitsistit
  - Septik xolitsistit
  - To'g'ri javob yo'q.
- O'tkir pankreatit va appenditsit kasalliklarida BTYo ni aniqlang.
  - Oshqozonni yuvish
  - Huqna qilish
  - Antibiotiklar berish

G. Muzli xaltacha qo'yish  
D. Qayt qildirish.

6. Buyrak tosh kasalligida asosiy belgini aniqlang  
A. Qayt qilish  
B. Yo'tal  
V. Qabziyat  
G. Belda qattiq og'riq  
D. Ko'ngil aynish.

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: O'TKIR TERAPEVTIK KASALLIKLAR VA BTYO.

### Darsning maqsadi:

talabalarni o'tkir terapevtik kasalliklar, belgilari, turlari va ularda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlari bilan tanishtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

mavzuni o'zlashtirish davomida talabalar nafas a'zolari va yurak-qon tomir kasalliklari, jumladan, bronxial astma, yurak poroklari, gipertoniya, stenokardiya, miokard infarkti, kollaps, yurak astmasi to'grisida tushunchaga ega bo'ladilar va o'tkir terapevtik kasalliklarda BTYO ko'nikmalarini hosil qiladilar.

### O'quv maqsadlari:

1. O'tkir terapevtik kasalliklar to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lish.(1-daraja)
2. Nafas a'zolari va yurak-qon tomir tizimining o'tkir kasalliklarida birinchi tibbiy yordam bera olish ko'nikmalariga ega bo'lish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. 50 yoshli erkakda ish davomida yurak sohasida keskin og'riqlar hosil bo'lib chap qo'l tomonga berildi. Bundan avvalgi og'riqlar validol qabul qilganda bosilgan. Shu safar esa bu preparat yordam bermadi. Teri qoplarning rangi odatdagidek, puls daqiqada 82-86 ta, tulishishi qoniqarli. Arterial qon bosimi 160/90 mm.sim.ust.,nafas daqiqada 20 ta. Ushbu holatda BTYO tadbirlarini aniqlang.
2. Avtobusda to'satdan yo'lovchilardan biri o'zini yomon his qildi. To'sh sohasida kuchli og'riq paydo bo'lib, chap qo'l va kurak sohasiga tarqaladi, shuningdek, bemorda havo yetishmasligi, bosh aylanishi va holsizlik belgilari mavjud. Ko'zdan kechirilganda: teri qoplamlari oqargan, sovuq ter bilan qoplangan, puls daqiqada 50-52 ta, tulishishi kuchsiz, nafas yuzaki va tez-tez. Bu holatning sababini va BTYO ni izohlab bering.
3. Anamnezida ilgaridan bronxial astma qayd etilgan bemorda to'satdan xurujlar boshlandi. Bemorda nafas siqilishi, havo yetishmasligi, teri qoplamalarining ko'karishi va sovuq ter bilan qoplanishi, xirillash kabi belgilar kuzatilmoqda. Bunga yo'tal va balg'am ajralishi ham qushiladi. Tashhis va BTYO ni aniqlang.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Stenokardiya kasalligi, belgilari, tibbiy yordam tadbirlari
2. Miokard infarkti, sabablari, belgilari va tibbiy yordam tadbirlari.
3. Yurak va bronxial astmasi, tibbiy yordam va davolash printsiplari
4. O'pka shishi, unda BTYO tadbirlari.

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Stenokardiya va miokard infarktining asosiy tavsifini bering

Kasallik turi	Asosiy belgilari	BTYO tadbirlari
Stenokardiya		
Miokard infarkti		

2. Bronxial va yurak astmasi kasalliklarini taqqoslang

Kasallik turi	Belgilari	BTYO tadbirlari
Bronxial astma		
Yurak astmasi		

3. O'pka shishida ko'riladigan chora-tadbirlarni yozib bering

### Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. Yurak porogi kasalligining ikkinchi bosqichida kuzatiladigan belgilarni aniqlang.
  - A. Organlarning morfologik jihatdan o'zgarishi
  - B. Venoz qon dimlanishi, oyoqlarda shish paydo bo'lishi
  - V. Bo'g'ilish, balg'am ajralishi
  - G. Yurakning uynashi, bemorning ozib ketishi
  - D. Bosh aylanishi, bosh ohrihi, quloq shanhillashi.
  
2. Miokard infarktiga olib keluvchi asosiy sabablarni ko'rsating.
  - A. Kuchli ruhiy yoki jismoniy zuriqish
  - B. Revmatizm
  - V. Kamqonlik
  - G. Yurak porogi
  - D. Bronxial astma
  
3. Stenokardiya xurujining sabablarini aniqlang
  - A. Miokard gipoksiyasi
  - B. Yurak klapanlarining nuqsoni
  - V. Miokard bir qismining nekrozi
  - G. Yurak ritmining buzilishi
  - D. Hammasi to'g'ri
  
4. Miokard infarktida kuzatiladigan asosiy o'zgarishni aniqlang
  - A. Miokard gipoksiyasi
  - B. Yurak klapanlarining nuqsoni
  - V. Miokard bir qismining nekrozi
  - G. Yurak ritmining buzilishi
  - D. Hammasi to'g'ri
  
5. Bronxial astma xurujida ishlatiladigan preparatni aniqlang
  - A. Salbutamol
  - B. Kofein
  - V. Validol
  - G. Nitroglitserin
  - D. Korvalol

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: O'TKIR TERAPEVTIK KASALLIKLAR VA BTYo (DAVOMI).

### Darsning maqsadi:

talabalarni o'tkir terapevtik kasalliklarning asosiy belgilari, turlari va ularda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlari bilan tanishtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

mavzuni o'zlashtirish davomida talabalar to'tqanoq, o'tkir buyrak sanchig'i, miyaga qon quyilganda va diabetik komalarda kuzatiladigan belgilar va ularda ko'rsatiladigan BTYo ko'nikmalarini hosil qiladilar.

### O'quv maqsadlari:

1. O'tkir terapevtik kasalliklar to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lish.(1-daraja)
2. O'tkir terapevtik kasalliklarda birinchi tibbiy yordam bera olish ko'nikmalariga ega bo'lish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Anamnezida ilgaridan diabet bilan og'rib yurgan bemorda es-hushning yo'qolishi, teri qoplamlarining oqarishi, yoniga borganda atseton hidi kelishi, A/B ning tushib ketishi kabi belgilar mavjud. Zudlik bilan qondagi qand miqdori tekshirilganda normadan ortiq (12,4 g/l). Bemorning tashhisi va ko'riladigan chora-tadbirlarni aniqlang.
2. Yosh ayolda to'satdan tomoq sohasida kuchli og'riqlar va yutinishning qiyinlashuvi kuzatildi. Tana harorati 39,5<sup>0</sup> S.  
Bodomcha bezlari va uning yaqinidagi limfa tugunlari kattalashgan, usti karash bilan qoplangan, paypaslaganda shu sohada og'riq seziladi. Kasallik turi va BTYo tadbirlarini aniqlang.
3. O'smir yigit to'satdan hushidan ketib yiqilib tushdi va bir necha daqiqadan so'ng og'zidan to'xtovsiz ko'pik ajralishi, tana mushaklarining tonik va klonik qisqarishi kuzatildi. Bemorga qanday tibbiy yordam berish mumkin ?.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Tutqanoq kasalligi, turlari, tibbiy yordam tadbirlari
2. Buyrak sanchig'i, asosiy belgilari va tibbiy yordam tadbirlari.
3. Miyaga qon qo'yilganda tibbiy yordam va davolash printsiplari
4. Giper- va gipoglikemik komalar, sabablari, belgilari va BTYo.

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Tutqanoq kasalligining asosiy tavsifini bering

Kasallik turi	Asosiy belgilari	BTYo tadbirlari
Katta tutqanoq		
Kichik tutqanoq		
Psixomotor ekvivalent		



## 2. Diabetik komada ko'riladigan BTYo tadbirlarini aniqlang

Koma turi	BTYo tadbirlari
Giperglikemik	
Gipoglikemik	

## 3. Miyaga qon quyilganda ko'riladigan chora-tadbirlarni yozib bering

Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. Miyaga qon quyilishiga olib keladigan kasallikni aniqlang.

- A. O'tkir hepatitlar
- B. Temir yetishmaslik kamqonligi
- V. Bronxial astma
- G. Qandli diabet
- D. Gipertoniya

2. Gipertonik krizning asosiy belgilarini ko'rsating.

- A. Bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, arterial bosimning to'satdan ko'tarilishi.
- B. Venoz qon dimlanishi, oyoqlarda shish paydo bo'lishi
- V. Bo'g'ilish, balg'am ajralishi.
- G. Ko'krak qafasida qattiq og'riq, arterial bosimning tushib ketishi
- D. Tana harorati pasayishi, bemorning ko'karib ketishi.

3. Buyrak sanchig'iga olib keluvchi asosiy kasallikni aniqlang.

- A. Buyrak-tosh kasalligi
- B. Buyrakda o'smalar bo'lishi
- V. Sil
- G. Buyrakning yallig'lanish kasalliklari
- D. Hammasi to'g'ri

4. Giperglikemik komada ishlatiladigan preparatni aniqlang

- A. Adrenalin
- B. Insulin
- V. 40 % li glyukoza eritmasi
- G. Validol
- D. Nitroglitserin

5. Tutqanoqning katta xurujida ishlatiladigan preparatni aniqlang

- A. Benzonal
- B. Kofein
- V. Validol
- G. Valokardin
- D. Korvalol

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## DARS MAVZUSI: REANIMATSIYA.

### Darsning maqsadi:

talabalarni terminal holatlarning turlari, belgilari va ularda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlari bilan tanishtirish.

### Mavzuning ahamiyati:

mavzuni uzlashtirish davomida talabalar terminal holatlarning bosqichlari, kollaps, shok, klinik va biologik o'lim belgilari bilan tanishadilar va nafas, yurak faoliyatini tiklash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

### O'quv maqsadlari:

1. Reanimatologiya to'g'risida tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. Oddiy reanimatsiya tadbirlarini o'tkaza olish ko'nikmalariga ega bo'lish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Ko'chadan topilgan kishida hech qanday tiriklik alomatlari kuzatilmadi, ya'ni hushsiz holatda, ko'krak qafasining harakati ko'rinmadi, uyqu arteriyasida puls yo'q, yurak urishi eshitilmadi. Odamning tirik yoki tirikmasligini qanday aniqlash mumkin? Unga BTYo ko'rsating
2. Jabrlanuvchi qulagan devor tagidan topildi. Unda tiriklik alomatlari yo'q edi. Bu holatda ko'rsatiladigan BTYo tadbirlarini ayting.
3. Erkak kishi stomatolog qabulida birdan oqarib ketdi va sekin polga yiqildi. Bemorga nima qildi va davolash muassasasi sharoitida unga qanaqa yordam berish mumkin?.
4. Jabrlanuvchi qulagan devor tagidan topildi. Kuzatuv natijasida yuzi va shilliq qavatlar ko'kargan, hushsiz, nafas olmadi, arteriyalarda pulsni aniqlab bo'lmadi, yurak qisqarishlari yo'q. Jabrlanuvchining holatini aniqlang va unga qanday BTYo tadbirlari ko'rsatilishi lozim?.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Terminal holatlarning bosqichlarini aytib bering.
2. O'tkir nafas yetishmovchiligining belgilari va tiklash tadbirlari
3. O'tkir yurak yetishmovchiligining belgilari va tiklash tadbirlari
4. Cho'kkan odamga ko'rsatiladigan reanimatsiya tibbiy yordam tadbirlari.
5. Elektr toki urganda reanimatsiya tadbirlari.

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Terminal holatlarning bosqichlari va asosiy belgilarini aniqlang

Bosqichlari	Asosiy belgilari
Preagonal	
Agonal	
Klinik o'lim	

2. Elektr toki o'rgan odamga ko'rsatiladigan tibbiy yordam bosqichlarini yozib bering
3. Sun'iy nafas oldirish usullarini amalda ko'rsatib bering
4. Yurakni yopiq usulda massaj qilish qoidalarini amalda tushuntirib bering

### Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. O'tkir nafas yetishmovchiligida gipoksiya nima?
  - A. To'qimalarda karbon kislotalari miqdorining oshishi
  - B. Arterial qonning kislorod bilan kam to'yinganligi
  - V. To'qimalarning kislorod bilan yetarlicha ta'minlanmasligi
  - G. Ichki a'zolarining qon bilan to'la ta'minlanmasligi
  - D. To'qimalarning qon bilan to'la ta'minlanmasligi
  
2. O'tkir yurak yetishmovchiligida beriladigan asosiy preparatni aniqlang.
  - A. Adrenalin
  - B. Suprastin
  - V. Ampitsillin
  - G. Sulfademizin
  - D. Tetratsiklin
  
3. O'tkir nafas yetishmovchiligida ko'riladigan asosiy chora-tadbirlarini aniqlang.
  - A. Arterial bosimni o'lchash
  - B. O'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi
  - V. Tana haroratini o'lchash
  - G. Pulsni o'lchash
  - D. Bemorga tinch sharoit yaratish.
  
4. Yurak urishi to'xtaganda ko'riladigan asosiy chora-tadbirlarini aniqlang.
  - A. Arterial bosimni o'lchash
  - B. Tana haroratini o'lchash
  - V. Yurakni bevosita va bilvosita massaj qilish.
  - G. Me'dani zondlash
  - D. Bemorga tinch sharoit yaratish.
  
5. Cho'kkanda ko'riladigan reanimatsiya chora-tadbirlarini aniqlang.
  - A. Yurak va nafas faoliyatini tiklash
  - B. Qayt qildirish
  - V. Me'dani zondlash
  - G. Huqna qilish
  - D. To'g'ri javob yo'q.

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.

## MAVZU: ZAHARLANISHLAR (ILON, ChAYoN, QORAQURT; PESTITsID, ZAHARLI O'SIMLIKLER BILAN ZAHARLANISH) VA BTYo.

### Darsning maqsadi:

talabalarni hayot davomida uchrashi mumkin bo'lgan turli zaharlanishlar, ularning kelib chiqish sabablari, belgilari va ularda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tadbirlari bilan tanishtirishdan iborat.

### Mavzuning ahamiyati:

zaharlanish inson hayotida ko'pincha dori moddalaridan, ovqatdan, o'simlik va hayvon zaharlari ta'sirida kelib chiqadi. Bu tasodifan yoki kutilmagan holda ham ro'y berishi mumkin va inson hayotini saqlab qolish uchun shoshilinch tibbiy yordam berish lozim. Mavzu davomida talabalar zaharlanish sabablari, belgilari, turlari va birinchi tibbiy yordam berish tadbirlari bilan tanishadilar.

### O'quv maqsadlari:

1. Zaharlanishlar to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lish (1-daraja)
2. Turli zaharlanishlarda birinchi tibbiy yordam bera olish ko'nikmalariga ega bo'lish (2-daraja)
3. Vaziyatli masalalarni va testlarni yechish (3-daraja).

### Vaziyatli masalalar:

1. Erkak kishi 1 stakan bor kislotasining spirtli eritmasini tasodifan ichib qo'ydi. Natijada uni qorin og'rig'i, jig'ildon qaynashi va qayd qilish bezovta qila boshladi. Unga BTYo ko'rsating.
2. Yosh bola asabiylashgan holatda, harakatlari tartibsiz va baqiroq bo'lib qoldi. Kuzatilganda: teri yuzasi oqargan, pulsi tezlashgan, ko'z qorachig'lari kengaygan, vaqti-vaqti bilan qayt qilmoqda. o'rtoqlarining aytishlaricha, u qanaqadir mevani yegan. Zaharlanish turi va BTYo tadbirlarini ko'rsating.
3. Erkak kishi hushsiz holatda garajdan, dvigateli ishlab turgan avtomobil yonidan topildi. Ko'zdan kechirilganda: teri yuzasi oqarganligi bilan bir qatorda terida och-qizil doglar bor, nafas harakati ritmik holatda emas, ya'ni, chuqur nafasdan so'ng- uzoq uzilish va keyin uncha chuqur bo'lmagan nafas olish. Pulsni qo'l arteriyasida aniqlab bo'lmadi, o'yqu arteriyasida tekshirilganda daqiqada 50-52 ga teng bo'lib, to'lishishi kuchsiz, ko'z qorachig'lari kengaygan, yurak tonusi juda past, deyarli sezilmaydi. Bemorga nima qilgan va uning holatini izohlang. BTYo tadbirlarini ko'rsating.

### Mavzuning asosiy savollari:

1. Zaharlanish va uning turlari, belgilari, sabablari to'g'risida umumiy tushuncha bering.
2. Zaharlanishda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordamning umumiy printsiplarini aytib bering.
3. Barbituratlar, xolinoblokatorlar, og'ir metallar va ularning birikmalari bilan zaharlanish va BTYo.
4. Pestitsidlar, turli gazlardan va alkogoldan zaharlanish va unda BTYo.
5. Ilon va boshqa jonivorlar chaqqanida zaharlanish va BTYo.

Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Quyidagi moddalardan zaharlanganda asosiy belgilar va BTYo ni aniqlang.

Moddalar	Belgilari	BTYo
Barbituratlar		
Xolinolitiklar		
Narkotik analgetiklar		

2. Og'ir metall birikmalari bilan zaharlanganda ko'rsatiladigan BTYo bosqichlarini ketma-ketlikda yozing.
3. Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy birikmalar bilan zaharlanganda asosiy belgilari va BTYo ni ko'rsating.

Moddalar	Belgilari	BTYo tadbirlari
Fosfor organik birikmalar		
Xlor organik birikmalar		

Mustaqil shug'ullanish uchun testlar:

1. Ilon chaqqanda BTYo tadbirlarini aniqlang
- A. Jgut qo'yish
  - B. Me'dani chayish
  - V. Terini kesish
  - G. Kuydirish
  - D. Muzli xaltacha qo'yish
2. Alkogoldan zaharlanganda ko'riladigan BTYo tadbirlariga kirmaydi.
- A. Oshqozonni yuvish.
  - B. Glyukoza va insulin eritmasini yuborish
  - V. 4% li natriy gidrokarbonat yuborish
  - G. Diuretiklar yuborish
  - D. Og'riq qoldiruvchilar yuborish.
3. Asosan, mahalliy ta'sirga ega moddalarni ko'rsating
- A. Margumish birikmalari
  - B. Simob birikmalari
  - V. Kislota va ishqorlar
  - G. Ammiak
  - D. Fosfor birikmalari
4. Barbituratlardan zaharlanishda kuzatiladigan bosqichlarni aniqlang.
- A. Uyquga moyillik
  - B. Yuzaki koma
  - V. Chuqur koma

- G. Komadan keyingi davr
- D. Hammasi to'g'ri

5. Is gazidan og'ir zaharlanganda BTYo ni aniqlang.

- A. Oshqozonni yuvish.
- B. Sun'iy nafas berish.
- V. 4% li natriy gidrokarbonat yuborish
- G. Diuretiklar yuborish
- D. Og'riq qoldiruvchilar yuborish

### Darsning jihozlanishi:

(jadvallar, slaydlar, video va diafilmlar)

### Adabiyotlar:

1. Pervaya dovrachebnaya pomosh (pod. red. prof. V. M. Velichenko i prof. G. S. Yumasheva). Moskva. 1989 g.
2. M. N. Maxsumov Vrachgacha birinchi tibbiy yordam (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
3. Patologiya asoslari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. A. T. Nikboev, Yu. Arslonov, F. Jabborov. Toshkent, 2001 y.
4. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.
5. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. Prof. F. G. Nazirov tahriri ostida. Toshkent, 2003 y.